ODDIY SHAFTOLI (PERSICA VULGARIS MILL.) NING POLISAXARIDLARINI TAHLIL QILISH

Abdurasuliyeva G.M. [1]
Farmanova N.T. [2]
Berdimbetova Г.Е. [3]
[1] Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti
gulshadabdurasulieva@gmail.com;
tel.: +998911641292
[2] Toshkent farmatsevtika instituti
[3] O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi
Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot instituti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17078757

Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill*.) yer yuzida keng tarqalgan bo‘lib, organizmdagi keraksiz, zaharli moddalardan tozalashga yordam beradi, yani tozalash xususiyatiga ega [3]. Shuningdek, Ibn Sino shaftoli barglarining sharbatini yallig‘lanishga, qorin bo‘shlig‘idagi va quloqdagi qurtlarga qarshi tavsiya qilgan. Bitishi qiyin bo‘lgan yaralar uchun davo qilingan [1,2,3].

Polisaxaridlar keng spektrli biologik faol birikma bo‘lib, organizmdagi toksik moddalardan tozalashda sorbent vazifasini bajaradi va yallig‘lanishga qarshi ta’sirlarga ega.

Hozirgi vaqtda Orol mintaqasida joylashgan Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘stirilgan oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill*.) barglari tarkibidagi suvda eruvchi polisaxaridlari yetarlicha o‘rganilmagan.

Tadqiqot maqsadi. Qoraqalpog’iston Respublikasida o‘stirilgan oddiy shaftoli barglari tarkibidagi polisaxaridlarni tahlil qilish.

Tadqiqot usul va uslublari. Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill*.) barglari 2024-yilning Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qong‘irot tumanida avgust oyida yig‘ildi va standart holatiga keltirildi hamda laboratoriya sharoitida suvda eruvchi polisaxaridlarini ajratib olish uchun maydalangan oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill*.) barglaridan 100 g kolbaga solib ustiga xloroform va metanol (1:1) aralashmasidan 500 ml solindi va filtrlab olindi. Shu jarayon ikki marotaba takrorlandi. Qolgan o‘simlik qoldig‘i quritildi [4,5,6].

Suvda eruvchi polisaxaridlar, pektin moddalari, gemiselluloza ajratib olindi va polisaxaridlarni hosil qiluvchi monasaxaridlar tarkibi aniqlandi.

Natija. Xromatogafik tahlil natijalariga ko‘ra spirtda eriydigan qandlar fruktoza va saxarozadan iboratligi aniqlandi. Ajratib olingan polisaxaridlarning miqdori va monosaxaridlar tarkibi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglaridan ajratib olingan polisaxaridlarning miqdori va ularning monosaxarid tarkibi

Xom ashyo	PS turi	Miqdori, %	Monasaxarid qoldiqlarining nisbati						UA, QX	$\eta_{отн}$(1%, p-p)
			Gal	Glc	Ara	Man	Xyl	Rha		
Shaftoli bargi	SEPS PM GMTS	2.2 3.0 12.0	3.0 3.0 3.0	2.0 - 1.0	3.0 4.0 3.0	- - 1.0	1.5 1.0 4.0	1.0 1.0	- + +	2.46 5.57 1.6

1-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tahlil natijasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Qong'irot tumanida o'sadigan oddiy shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) barglaridan suvda eruvchi polisaxaridlar (SEPS), pektin moddalari (PM) va gemisellulozalar (GMS) ajratib olindi va polisaxaridlarning monosaxaridlari tarkibi o'rganildi. Polisaxaridlarning monosaxaridlari arabinogalaktanlarga mansub ekanligi aniqlandi.

Xulosa. Ilk bora Qoraqalpog'iston Respublikasida o'sadigan oddiy shaftoli barglari tarkibidagi suvda eruvchi polisaxaridlar (qog'oz xromatografiya, IQ-spektroskopiya va gaz xromotografiyasi) usullarida tahlil qilinib, ularning monosaxarid tarkibi birinchi marta aniqlangan.

Adabiyotlar:

1. Abu Ali Ibn Sino Tib qonunlari" III-kitob birinchi jild, ikkinchi nashri, O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti. Toshkent, 1979;78,358,567,603.
2. Савенкова А.Б., Нестерова Н.В. Разработка макро-и микродиагностических признаков в сырье листья персика обыкновенного персика обыкновенного (Persica vulgaris Mill.) // Медико-фармацевтический журнал "Пульс"Российская Федерация, Vol. 23. №1.2021;48-50.
3. Исторический опыт и перспективы использования сырья персика в медицине и фармации. Савенкова Анна Борисовна, Нестерова Надежда Викторовна. Секция фармацевтические науки. //Студент года 2019;340-342.
4. Кочеткова Н.К. Методы химии углеводов под.ред. Москва, Мир, 1967; 261-262.
5. Рахманбердиева Р.К., Кристалович Э.Л., Абдуллаев Н.Д. Полисахариды Cardaria repens и изучение их ИК-спектров.// Химия природных соединений. Ташкент, №2. 1995; 202-205.

6. Маликова М.Х., Сиддикова А.А., Рахманбердыева Р.К. Сезонная динамика содержания и состава углеводов Stachys hissarica (сем. Lamiaceae)// Растительные ресурсы журнал, Том 52. вып. 3. 2016;397-405.